

## MUHAMMAD YUSUF IJODIDA VATAN TARANNUMINING IFODALANISHI

**Usmonova Yulduz Faxriddin qizi**

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti, 2-kurs

[yulduzcha9901@gmail.com](mailto:yulduzcha9901@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she’riyatida Vatan tuyg‘usi g‘oyalarining ifodalanishi yoritib berilgan. Shoir ijodidagi o‘ziga xoslik, uslubidagi betakrorlikning she’rlarida qanday aks etishi tavsiflangan. Poetik sintaksis vositalari bo‘lgan ritorik so‘roq, antiteza, epifora, apostrofa kabi turlaridan foydalanganligi misollar asosida izohlangan.

**Kalit so‘zlar:** antiteza, epifora, apostrofa, poetik sintaksis, uslub, poetik fonetika.

### АННОТАЦИЯ

В этой статье освещаются идеи родина в поэзии Мухаммеда Юсуфа. Поэтический характер творчества поэта описан в его стихах. Использование поэтического синтаксиса, риторического опроса, антитезиса, эпифора, апострофа объясняется примерами.

**Ключевые слова:** антитезиса, эпифора, апострофа, поэтический синтаксис, стиль, поэтическая фонетика.

### ANNOTATION

In this article, Muhammad Youssef’s poetry reflects the ideas of the motherland. The poetic character of the poet’s work is described in his poems. The use of poetic syntax, rhetorical interrogation, antithesis, epiphora, apostrophe, is based on examples.

**Key words:** antithesis, epiphora, apostrophe, poetic syntax, method, poetic phonetics.

Yurt muhabbatini o‘zgacha ohang va takrorlanmas misralarda ta’riflagan shoir she’riyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, hammamizni hayratlantiradi. U rostgo‘y, halol va pokiza qalb egasi. Shu sababli ham ijodkor she’riyati ma’naviyatga to‘la, u muhabbat haqida kuylaydimi, tariximiz sahifalarini qalamga oladimi hammasida xalqonalik, haqqoniylik sezilib turadi. U o‘zining misralari bilan xalqning orzu-

armonlari, quvonch va iztiroblarini kuylayotgandek tuyuladi. Ijodkor she'riyatidagi soddalik xalq og'zaki ijodi bilan hamohang usulda namoyon bo'ladi. "Birinchi Prezidentimiz bejiz Agar biz Vatanimizni dunyoga tarannum etmoqchi bo'lsak, eng avvalo, buyuk yozuvchilar va shoirlarni tarbiyalashimiz kerak" deb aytmagan. Chunki ijodkor o'z misralari bilan xalq dardini kuylaydi".[3.70- bet]

Muhammad Yusuf hayotdagi har qanaqa hodisaga o'z sohir nigohi bilan boqib, uni go'zal she'rga aylantira olgan. U nimani yozsa, yurakdan yozgan. Shu sabab ham uning she'rlari millionlab qalblarga yetib borgan. Bir qarashda shoir misralari biroz soddadek ko'rindi. Lekin nima uchun boshqa ijodkor shu uslubda yoza olmaydi yoki boshqa shoirlar she'rlari bunchalik inson qalbini egallay olmaydi? Bu savolga qisqa qilib, shoir qalbi, shaxsiyati va she'riyati bir ijodkor ekanligi deb javob berish mumkin. Chunki bunday ijod qilish uchun, albatta, katta va samimiyl qalb egasi bo'lishi kerak. She'rlarida tarannum qilgan xalqi va Vatanini chin dildan chin dildan seva olishni bilish muhim. O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov shoirga shunday ta'rif beradi: "Muhammadjon kamdan kam shoirda uchraydigan xislat egasi — shuhratdan qochadigan kansuqum inson edi.U shuhratning emas, shuhrat uning ortidan quvib yurardi".[4.65-bet]

Muhammad Yusuf she'riyatining bosh mavzusi – mehr-muhabbat, sevgi – sadoqat kabi insoniy tuyg'ular va bu tuyg'ularning bosh omili, gultoji bo'lgan Vatanga nisbatan cheksiz muhabbat va ehtiromni tarannum etish sanaladi. Vatan mavzusida yozilgan asarlarning tub mohiyati bir bo'lsa-da, lekin ularning hech biri bir-biriga o'xshamaydi. Shu o'rinda shoir she'rlarida hech kim tasavvur qilmagan, ammo mos keladigan tashbehlarni ko'ramiz. Bunday o'xshatishlar boshqa hech bir ijodkor she'riyatida uchramasligi – shoir asarlarning o'ziga xos badiiy tili deyiladi. Masalan, Vatan haqida yozgan shoirlarning hech biri hali Vatanni onaga, singilga o'xshatgan emas yoki Vatanning tol beshikdan boshlanishini faqat shu ijodkorgina o'z asarida ilk bor qo'llagan. Vatanning bog'-rog'larini, so'lim go'shalarini tarannum etganlar ko'p. Lekin hech kim Vatanni "yuragimning olampanohi" deb uning "bukri bir jiydasingning shoxi"ni kuylagan emas yoki "tilning ostida novvot – zarimsan, sen mening yagona payg'ambarimsan" degan tashbehlarni Muhammad Yusuf she'riyatidagina uchratamiz.

Shoir she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, misralardagi emotSIONallikni, ta'sirchanlikni yuzaga chiqarishda badiiy san'atlari: poetik sintaksis va poetik fonetikaning o'rni katta bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Uning Vatan mavzusidagi she'rlarida badiiy san'atlardan talmeh, tashbeh, tazoddan keng foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, poetik sintaksis vositalari bo'lgan ritorik so'roq, antiteza, epifora, apostraфа kabi turlaridan foydalangan. Masalan, o'zbek xalqining turmush tarzini ko'rsatib beruvchi "Qora qumg'on" she'rida apostraфа san'ati she'ring emotSIONalligini vujudga keltirgan.

*Momom senga olov yoqqan,  
Qora qumg'on, qora qumg'on.  
Bobomni ham o'zing boqqan,  
Qora qumg'on, qora qumg'on.*

Shoir ijodidan “O‘zbekiston” she’ri o‘zining hissiy bo‘yoqdorligi, jozibadorligi bilan alohida o‘rin tutadi. Jumladan,

*O, ota makonim,  
Onajon o‘lkam  
O‘zbekiston jonim to‘shay poyangga  
Senday mehribon yo‘q  
Seningdek ko‘rkam,  
Rimni alishmasman bedapoyangga*

deb boshlanuvchi she’r satrma-satr, bandma-band ta’sirchanligini oshirib boradi. Guvohi bo‘lganiningizdek, birinchi bandda insoniyat sivilizatsiyasining birinchi durdonasi bo‘lmish—Rimni o‘zining keng bedapoyasiga teng ko‘rmagan shoir ikkinchi bandda yurtining serjilo tabiatini tarannum etib, “Qayga borsam suyab boshni tik tut deb, tog‘laring izimdan ergashib yurar”, - deya kuylaydi.

Uchinchi bandda esa shoir o‘zbek farzandi sifatida undan ko‘rk-hasham, dabdaba begonaligini, uning uchun Parijdagi eng go‘zal restorandan xonadonidagi ko‘rimsiz tandiri ustun ekanligini aytadi.

To‘rtinchchi bandda esa yurtidan hech qachon ko‘ngil uzib ketolmasligini, sal uzoqlashsa, ko‘zdan uyqu, dildan halovat qochishiga iqror bo‘ladi. Keyingi misralarda bahorda tug‘ilgan qo‘zi arab ohusidan ko‘ra totliroq, dunyodagi jamiki boylik Vatanning bir siqim tuprog‘idan aziz emasligini ta’kidlab, oxirgi bandda yurtiga tugal fikr aytadi.

*Sen bilan o‘tgan har kun bayram – bazm,  
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi,  
Seni bilganlarga qilaman ta’zim,  
Seni bilmaslarga rahmim keladi.*

Ko‘rib o‘tganimizdek, Muhammad Yusuf ijodidagi Vatan mavzusidagi she’rlar o‘zining teranligi va ohangraboligi bilan o‘quvchiga o‘zgacha emotsiyonallik bag‘ishlaydi. Bunday she’rlar esa o‘z – o‘zidan, oddiy so‘zlarning ketma – ket saf tortishidan yuzaga kelmaydi. Balki, Vatanga bo‘lgan mehr – muhabbat mevasi sifatida

qalbdan to‘kiladi. Vatanini kuylar ekan, uni o‘zidan ajratib, maddohlik bilan kuylamaydi. Ya’ni, uning faqatgina yaxshi tomonlarini ko‘rib, og‘riqli nuqtalariga qo‘l siltab ketmadi. Uni boricha sevdi, ardoqladi, uni yuksaltirishga intildi. Zero, haqiqiy vatanparvarlik ham shunday bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, shoир she’riyati shunchaki chiroyli so‘zlar majmuasi emas, bunda ijodkor she’riyatini jozibali qilgan sir— mavzuyimiz boshida tilga olingan shoирning samimiyl qalbi va bu qalbda to‘lib toshgan vatanparlik , xalqparvarlik , erksevarlik kabi tuyg‘ular. U Vatan mavzusida she’r yozar ekan, qalbidagi bor kechinmalarini yashirmsandan aks ettirar edi. Bunda Vatannning goh shonli o‘tmishi, goh qora kunlari bo‘lsin, xalqining fazilat – u qusurlari bo‘lsin, bari-barini yurakdan tuysa, salbiy illatlardan qalbi iztirobga to‘lar edi. Bu emotsiyaning barchasi Muhammad Yusuf asarlarining o‘ziga xosligini, ta’sirchanligini yuzaga keltirgan.

Shoirning Vatan mavzusida yozilgan she’rlarining yana bir o‘ziga xosligi shundaki, shoир Vatanni bir materiyaga o‘xshatadi. Ya’ni, u Vatanni kuylaganda faqat tog‘— u toshlarni, dasht-u dalalarni, maftunkor tabiatini kuylamaydi. Balki, hamohang tarzda bu obyektlarning harakatlantiruvchisi - millatni, xalqini u tug‘ilib o‘sgan maskan bilan birgalikda Vatan deb biladi va shu xalqqa, millatga bo‘lgan cheksiz ehtiromini o‘z asarlarida bayon etadi. Bu xalqning mentalitetini, urf - odatlarini ochib beruvchi, ko‘z - ko‘z qiluvchi asarlar ijodida juda ko‘p uchraydi. Biz shuning uchun ham Muhammad Yusuf she’riyatini xalqona she’riyat deb bilamiz. Shu narsa ayonki, Vatan, xalq, millat haqida Muhammad Yusufdek asarlar yozish uchun Vatanni, millatni Muhammad Yusufdek sevish, ardoqlash kerak. Buning uchun esa yana bir bor Muhammad Yusuf bo‘lib tug‘ilish kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Muhammad Yusuf “Saylanma“she’riy to‘plami. –Toshkent,2007
2. Boboyev T. “Adabiyotshunoslikka kirish”. – T.; O‘qituvchi, 1979
3. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. –Toshkent,2008
4. Normatov U. “Ijod sehri” – T.; Sharq, 2007